

Raximdjanoval Dilnavoz Sunnat qizi

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

v.b. dotsenti, DSc, Toshkent, O‘zbekiston

ruzmatova.dilnavoz@gmail.com

ORCID: 0000-0002-1857-7006

INSON ERKINLIGI MASALASINING PIKO DELLA MIRONDOLO QARASHLARIDAGI AKSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Uyg‘onish davri mutafakkiri Djovanni Piko della Mirandolaning yangi aflotunchilik doirasidagi falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Asarda inson erkinligi, qadr-qimmati va “o‘zini o‘zi shakllantiruvchi tabiat” haqidagi ta’limotning mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, Pikoning kosmik iyerarxiyaga nisbatan insonni alohida, mas’uliyatli va ijodkor mavjudot sifatida talqin qilishi, “falsafiy kelishuv” va yangilangan xristianlik g‘oyalarining Uyg‘onish davri gumanizmi hamda keyingi falsafiy oqimlarga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: yangi aflotunchilik, inson erkinligi, inson qadr-qimmati, falsafiy antropologiya, kosmik iyerarxiya, gumanizm, falsafiy kelishuv, tabiiy din.

Abstract. This article analyzes the philosophical views of the Renaissance thinker Giovanni Pico della Mirandola within the framework of Neoplatonism. The work reveals the essence of his doctrine on human freedom, dignity, and the concept of “self-forming nature.” It also examines Pico’s interpretation of the human being as a distinct, responsible, and creative entity in relation to the cosmic hierarchy, as well as the influence of his ideas of “philosophical concord” and renewed Christianity on Renaissance humanism and subsequent philosophical movements.

Keywords: Neoplatonism, human freedom, human dignity, philosophical anthropology, cosmic hierarchy, humanism, philosophical concord, natural religion.

Аннотация. В данной статье анализируются философские взгляды мыслителя эпохи Возрождения Джованни Пико делла Мирандола в контексте неоплатонизма. В работе раскрывается сущность его учения о свободе человека, человеческом достоинстве и концепции «самоформирующейся природы». Также рассматривается трактовка Пико человека как особого, ответственного и творческого существа по отношению к космической иерархии, а также влияние идей «философского согласия» и обновлённого христианства на гуманизм эпохи Возрождения и последующие философские течения.

Ключевые слова: неоплатонизм, свобода человека, человеческое достоинство, философская антропология, космическая иерархия, гуманизм, философское согласие, естественная религия.

Kirish

Uyg‘onish davri Yevropa falsafasi inson, tabiat va ilohiylik

o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha talqin etgan muhim tarixiy bosqichdir. Bu davrda antik merosga murojaat

qilish, inson aql-zakovati va erkinligini ulug'lash, sxolastik cheklovlardan chiqib ketishga intilish falsafiy tafakkurning asosiy yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, yangi afltunchilik (neoplatonizm) g'oyalari Uyg'onish davri gumanistik dunyoqarashining shakllanishida muhim o'rin tutdi. Florensiya intellektual muhitida rivojlangan bu oqim nafaqat metafizik va ontologik masalalarni, balki insonning qadr-qimmati, erkin tanlovi va ijodiy imkoniyatlarini markaziy muammo sifatida ilgari surdi.

Ana shunday buyuk mutafakkirlardan biri — Djovanni Piko della Mirandola — Uyg'onish davri falsafasida inson erkinligi va uning o'zini o'zi shakllantirishi haqidagi ta'limotni chuqur va izchil tarzda asoslab bergan faylasufdir. U o'zining mashhur "Inson qadr-qimmati haqida nutq" asarida insonni kosmik iyerarxiyaning qat'iy pog'onalariga bog'lab qo'yuvchi an'anaviy qarashlardan voz kechib, uni erkin iroda va mas'uliyat sohibi bo'lgan noyob mavjudot sifatida talqin qiladi. Piko uchun inson tayyor mohiyatga ega emas, balki o'z tanlovi va ijodiy faoliyati orqali o'zini doimiy ravishda yaratib boradigan mavjudotdir.

Mazkur maqolada Djovanni Piko della Mirandolaning falsafiy antropologiyasi, ayniqsa inson erkinligi, qadr-qimmati va "o'zini o'zi shakllantiruvchi tabiat" haqidagi

qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning yangi afltunchilik doirasida ilgari surgan "falsafiy kelishuv", "umumiy donishmandlik" va yangilangan xristianlik g'oyalari Uyg'onish davri gumanizmi, keyingi naturfalsafiy oqimlar hamda Ma'rifat davri erkinfikrliligi bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Shu orqali Piko ta'limotining Yevropa falsafasi tarixidagi o'rni va ahamiyatini yoritish maqsad qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O'zining ilg'or g'oyalari va aql bovar qilmas iste'dodi bilan Uyg'onish davrida yashab ijod qilgan Djovanni Piko della Mirandola (1463-1494) Florensiyada yangi afltunchilik g'oyalarini rivojlantirgan. Uning ko'p tillarni bilishi ham fikr va mulohazalarining o'ziga xos bo'lishiga xizmat qilgan¹.

Tabiat hodisalarining sababiy aloqasini tan olgan Djovanni Piko insonni g'oyibdan kelgan taqdir bitigini amalga oshiruvchi tobe xizmatchi holatiga tushirib qo'yadigan "karomat ko'rsatuvchi" va "bashorat qiluvchi" astrologiyani rad qilgan. Djovanni Piko della Mirandolaning falsafiy

¹ Djovanni Pikoning o'sha davr uchun noyob xislat sanalgan arab, qadimiy yaxudiy va armey tillarini bilishi, keyinchalik, uning 22 va

hatto 30 tildan xabardorligi borasida tasdiqlanmagan afsonalar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan [2: 92].

antropologiyasida inson erkinligi haqidagi ta'limot asosiy o'rinni egallaydi. Erkinlik prinsipi uning inson qadr-qimmatini to'g'risidagi ta'limoti asosida yotadi. Insonni "ulkan" dunyoning umumiy qonuniyatlarini akslantiruvchi mikrokosmos sifatida o'rgangan antik, o'rta asr, uyg'onish davri allomalaridan farqli ravishda Djovanni Piko insonni kosmik iyerarxiyadan tashqariga olib chiqadi va unga qarama-qarshi qilib qo'yadi. Inson kosmik iyerarxiyadagi uch "gorizontal" dunyolarning hech biri uning ananaviy neoplatonik tuzilmasiga (elementar, samoviy va ilohiy) aralasha olmaydigan o'ziga xos "to'rtinchi" dunyodir; u ularga nisbatan vertikal joylashgan bo'lib, dunyolarning barini kesib o'tadi. U iyerarxiya pag'onalarining o'rtasida turmaydi, uning o'rni barcha pag'onalardan holi. Iloh inson o'rnini iyerarxiyada belgilamagan degan fikrni o'zining mashhur "Inson qadr-qimmatini haqida nutqlar"ida yozib qoldirgan: "O, Odam Ato, ma'lum bir o'ringa, qiyofaga, ma'suliyatga o'zingning xohishing, irodang va qaroring tufayli erishishing uchun biz senga atab na aniq joy, na shaxsiy siymo va na ma'lum bir ma'suliyat bermadik. Boshqa turdagi yaratilgan mavjudotlar biz o'rnatgan qonuniyatlarimiz chegarasida aniq faoliyat yuritadi. Sen esa hech qanday cheklovlar bilan chegaralanmaysan, men senga yetkazib bergan vakolat orqali o'zingning siymoyingni o'zing kashf etasan". Inson olamning markazida turadi; u hech qanday o'ziga

xos (dunyoviy, samoviy, ilohiy) shaxsiy tabiatga ega emas; na o'lish va na boqiy yashash xususiyatini o'z ichiga olmaydi; u o'zini o'zi "erkin va shavkatli usta" singari yo'lga qo'yishi lozim. Mavjudotlar iyerarxiyasidagi insonning turi hamda o'rni faqat o'zining shaxsiy, erkin, tabir joiz bo'lsa ma'suliyatli tanlovi natijasida aniqlanishi mumkin va shart. U yulduzlar va farishtalar bo'lgan yergacha ko'tarilish hamda hayvoniy holatga tushish imkoniga ega [3: 1,507-508]. Djovanni Piko della Mirandola "o'zi xohlaganidek bo'lish va istaganini boshqarish imkoniyati berilgan insonning yuqori va betakror baxti"ni aynan shunda deb biladi [3: 1,508].

Djovanni Piko insonni ko'klarga ko'tarish va ilohiylashtirish kabi gumanistik an'anani davom ettirgan holda, tanlash erkinligini har qanday faoliyatning asosiy sharti va uning axloqiy bahosi sifatida e'tibor markaziga qo'yadi. Gap inson tabiatini, ya'ni shakllanayotgan, to'g'rirog'i "o'zini o'zi shakllantirayotgan" tabiatini yangicha tushunish borasida ketyapti. U bir marotaba va bir umga berilgan tortiq sifatida emas, balki insonni mustaqil ijodiy faoliyatining natijasi sifatida ko'rinadi. Inson tabiati mustaqal, anglangan va ma'suliyatli tanlovning doimiy shakllanish jarayoni jamlanmasi ko'rinishida o'rganiladi. Insonning "ilohiyligi"ni nafaqat u "xudoning o'ziga xos va o'ziga monand" bo'lib yaratilgani tasdiqlaydi, balki u uchun insoniy mukammallik tayyor holda berilmasdan, aksincha,

unga erishish imkoni borligi ham isbot qiladi.

Djovanni Pikoning “Nutqlar”i va uning butun falsafiy tizimida insonni va insoniy erkni ulug‘lash turli xil ta’limotlar kelishuvi orqali falsafani tubdan yangilash dasturiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Bu umumiy “kelishuv” Fichinoning “umumiy din” haqidagi g‘oyasini davomi sifatida ketdi. Bu yerda gap qarama-qarshi qarashlarni eklektik kelishuvi to‘g‘risida emas, balki ularda mujassamlashgan yagona va umumiy haqiqatni ko‘rsatish borasida ketyapti. Djovanni Piko tomonidan ilgari surilgan umumiy falsafiy donishmandlik, uning mo‘ljaliga ko‘ra, ortodoksal-katolik talqinidan ancha uzoq, yangilangan xristianlik bilan qorishib ketishi lozim bo‘lgan.

Uyg‘onish davriga mansub aflotunchilik o‘rta asr sxolastikasiga qarshi turuvchi umumlashgan falsafiy tizimni yaratish borasidagi birinchi urinish bo‘ldi. O‘rta asr va antik davrning yangi aflotunchiligi an‘anasiga asoslangan holda, XIV-XV asrlardagi gumanistik fikrlarning yutuqlaridan foydalanib, yangi aflotunchilar o‘rta asr an‘analariga qarshi bo‘lgan falsafiy polemika sohasini kengaytirishdi. E’tibor markaziga tabiiy va ilohiy muqaddimalarning o‘zaro aloqadorligi muammosi ko‘rinishida namoyon bo‘luvchi chuqur ildiz otgan ontologik muammolarni qo‘yish orqali ular yangi

dunyoning panteistik (garchi u ba’zi paytlarda mistik bo‘yoqlar bilan bo‘yalsada) suratini ishlab chiqishdi. “Ilohiylashgan” kosmos birligi, tabiatni umumiy ruhlanganligi haqidagi fikrlar, tabiatni “ichki usta” sifatida tushunish, bularning bari XVI asrning naturfalsafasida rivojlanishga erishdi.

Olamning go‘zalligi haqidagi ta’limot, uning ilohiylashtirilishi nafaqat o‘rta asr asketizmini² yengib o‘tishga olib keldi, balki estetik va axloqiy g‘oyalarni nazariy asoslashga, ilk Uyg‘onish davri ustalari ijodida olamning go‘zalligi va uyg‘unligini izlashga asos bo‘lib xizmat qildi. Sxolastikaning kitobiy bilimlaridan ko‘ra “tabiiy sehr” to‘g‘risidagi yangicha taassurot o‘zining mistik yondashuviga qaramasdan tabiat haqida bilimlarni amaliy qo‘lga kiritishga zamin yaratdi. “Umumiy din” va falsafiy ta’limotlar “kelishuv”i konsepsiyalari xristianlikning axloqiy idealini gumanistik tarzda qayta talqin qilishga ta’sir ko‘rsatdi. Keyinchalik u XVI asrning birinchi yarmidagi gumanistik fikrlar bilan birga rivojlandi. Keyinchalik u XVII-XVIII asrlarda e’tiqod qilish hamda ibodat marosimlaridagi xilma-xillikdan holi va elementar axloqiy normalar yig‘indisiga olib boruvchi deistlarning “tabiiy din” to‘g‘risidagi ta’limotiga o‘zining sezilarli hissasini qo‘shdi. Uning ta’sirini Ma’rifat davrining hurfikrligida ham ko‘rishimiz mumkin.

² Asketizm – (yunoncha “aske” – birornarsa bilan mashg‘ul bo‘lish) zohidlik, qanoat qilib yashash, moddiy boyliklardan imkoniyati

boricha kamroq foydalanish tuyg‘usiga asoslangan g‘oya [1: 37].

Adabiyotlar ro'yxati

1. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004.
2. Горфункел А.Х. Философия эпохи Возрождения. Учебное пособие. — М.: Высшая школа, 1980.
3. История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли. В 1 т. – М., 1962.
4. Rakhimdjanoва D.S. Practical importance of the transformational interpretation of the phenomenon of freedom in ancient times and in contemporaneity. – Philosophy and Life. – ISSN: 2181-9505, <https://doi.org/10.5281/zenodo.6852328>. – Tashkent, 2024. – P. 120-129.
5. Rakhimdjanoва D.S. The concept of the idea of freedom in ancient and medieval philosophy. - Psychology And Education Journal. – ISSN: 00333077, <https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1562> – 1195 Stroud Court Westerville, OH 43081, 2021. – P. 4553-4563.
6. Rakhimdjanoва D.S. Comparative Analysis of the Interpretation of the Phenomenon of Transformational Freedom in Antiquity with Its Modern Approach. - International Journal of Social Science Research and Review. – ISSN: 2700-2497, <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v6i1.921> – Germany, Duisburg, 2023. – P. 457-466.
7. Raximdjanoва D.S. Erkinlik tushunchasini transformatsion xususiyatini ikki davr o'rtasidagi differentsiatsiyasini sotsiologik so'rovnoma orqali tahlili. – International scientific journal of Biruni. – ISSN (E) 2181-2993, Volume 2, Issue 02. – Tashkent, 2023. – B. 33-46.